

## XUSUSIY DETEKTIVLIK FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Mirzayeva Zuxra-bonu Turakulovna

Toshkent davlat agrar universiteti Agroiqtisodiyot, logistika va xizmatlar fakulteti yurisprudensiya  
yo'nalish 3-bosqich talabasi Telefon raqam: (+99888) 072-03-11 mirzayevazuxrabonu@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xususiy detektivlik faoliyatining huquqiy tabiati, uning dunyo mamlakatlarida shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasida mazkur sohani qonuniy tartibga solish zarurati tahlil qilinadi. Mavzu doirasida xorij tajribasi o'rganilib, xususiy detektivlik xizmatlarini joriy etishning afzalliklari va xavf-xatarlari yoritiladi. Muallif xususiy detektivlik faoliyatini qonuniylashtirish va samarali nazorat qilish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ilgari suradi.

**Kalit so'zlar:** xususiy detektivlik, huquqiy tartibga solish, xavfsizlik, jinoyatchilikka qarshi kurash, O'zbekiston, xorij tajribasi, maxfiy axborot, fuqarolik jamiyati, litsenziyalash, nazorat.

**Аннотация:** В данной статье анализируется правовая природа частной детективной деятельности, этапы её становления и развития в странах мира, а также необходимость правового регулирования данной сферы в Республике Узбекистан. В рамках темы изучается зарубежный опыт и выявляются преимущества и риски внедрения услуг частных детективов. Автором выдвигаются предложения и рекомендации по легализации и эффективному контролю за частной детективной деятельностью.

**Ключевые слова:** частный детектив, правовое регулирование, безопасность, борьба с преступностью, Узбекистан, зарубежный опыт, конфиденциальная информация, гражданское общество, лицензирование, контроль.

**Abstract:** This article analyzes the legal nature of private detective activities, the stages of its formation and development in countries around the world, as well as the need for legal regulation of this area in the Republic of Uzbekistan. Within the framework of the topic, foreign experience is studied and the advantages and risks of introducing private detective services are highlighted. The author puts forward proposals and recommendations for the legalization and effective control of private detective activities.

**Keywords:** private detective, legal regulation, security, fight against crime, Uzbekistan, foreign experience, confidential information, civil society, licensing, control.

Barchamizga ma'lumki, so'ngi yillarda xavfsizlik va huquq-tartibotni ta'minlash masalalari global miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jinoyatchilikning yangi shakllari, kiberjinoyatlar, moliyaviy firibgarlik va boshqa huquqbuzarliklar sonining ortishi fuqarolarning o'z hayoti, mol-mulki va sha'ni himoyasini kuchaytirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu jarayonda xususiy detektivlik xizmatlari davlat huquqni muhofaza qiluvchi organlari faoliyatiga muqobil yoki qo'shimcha mexanizm sifatida shakllanmoqda, bu aynan bizning mamalakatimizda emas, balki boshqa chet el davlatlarida azaldan shakllanib davlatlarning huquqiy jihatdan yanada mustahkamlanishiga

,fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini yanada ta'minlanishini yaratib beruvchi asoslardan biridir..

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda xususiy detektivlik — qonun bilan tartibga solinadigan, maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan professional faoliyat turi sifatida e'tirof etilgan. Ular ayniqsa jinoiy ishlar bo'yicha „jinoiyatlarni,„issiq“ holatda ochishga davlat xodimlariga ko'maklashib qolmasdan ,fuqarolarning o'zi ham ularni hohlagan vaqtlarida vaziyat taqozosi bilan shartnoma asosida ma'lum bir pul miqdori evaziga yollashlari mumkin. Biroq O'zbekiston Respublikasida hozircha xususiy detektivlik faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun mavjud emas. Shu bois mazkur sohani joriy etish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan o'rganishga muhtoj. Ushbu maqolaning maqsadi — xususiy detektivlik faoliyatining huquqiy asoslarini o'rganish, xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish va O'zbekistonda mazkur sohani rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdir. Xususiy detektivlik tushunchasi va huquqiy tabiati jihatdan muayyan bir ifodani anglatadi ,bunda umumiy ta'rifdan kelib chiqib , xususiy detektivlik — bu davlat huquqni muhofaza qiluvchi organlariga kirmaydigan, lekin maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida fuqarolar, yuridik shaxslar va jamoat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan mustaqil faoliyat turi. Bu faoliyat doirasida detektivlar quyidagi xizmatlarni ko'rsatadilar:

- Yo'qolgan shaxslarni qidirish;
- O'g'irlangan mol-mulkni topish;
- Ishonchlilikni tekshirish (ish beruvchi va xodimlar o'rtasida);
- Oilaviy nizolarda dalil to'plash;
- Korporativ razvedka va axborot xavfsizligi.

Xususiy detektivlik faoliyati fuqarolik-huquqiy shartnomaga asoslangan bo'lib ,bunda mijoz va detektiv o'rtasida yozma shartnoma tuziladi, unda xizmat turi, muddat, to'lov miqdori va javobgarlik choralari belgilab qo'yiladi. Huquqiy tabiatiga ko'ra, detektiv faoliyat maxfiy ma'lumotlar bilan ishlashni o'z ichiga oladi, shuning uchun u qat'iy qonunchilik va davlat nazorati ostida bo'lishi kerak. Quyida esa xorij tajribasi va u yerda amalga kiritilgan va qonun bilan mustahalangan detektivlik to'g'risida ma'lumot keltirilgan

AQSh tajribasi;

AQShda xususiy detektivlik faoliyati har bir shtatda alohida qonun bilan tartibga solinadi. Litsenziya olish uchun nomzod:

- 21 yoshdan katta bo'lishi;
- Jinoyat sodir etmagan bo'lishi;
- Maxsus o'quv kursini tamomlashi;

Malaka imtihonidan o'tishi lozim. Detektivlar politsiya vakolatiga ega emas, lekin dalil to'plash, kuzatuv va intervyu olishda mustaqil ishlaydi.

Buyuk Britaniya tajribasi;

Buyuk Britaniyada 2001-yildan boshlab “Xususiy xavfsizlik sanoatini tartibga solish to'g'risida”gi qonun kuchga kirdi. Detektivlik bilan shug'ullanish uchun SIA (Security Industry Authority) tomonidan berilgan litsenziya talab etiladi. Bu tizim:

- Professional standartlarni;
- Maxfiylikni;

Fuqarolarning shaxsiy hayot huquqini himoya qilishni ta'minlaydi.

Rossiya tajribasi;

Rossiyada xususiy detektivlik faoliyati 1992-yilda qabul qilingan "Xususiy detektivlik va qo'riqlash faoliyati to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Qonunga ko'ra, detektivlar:

Ommaviy joylarda videokuzatuv olib borish;

Foto va audio yozuvlardan foydalanish; Dalillarni sudga taqdim etish huquqiga ega. Ko'rinib turibiki ushbu jahon tajribasi halicha bizga kirib kelmagan O'zbekistonda xususiy detektivlik faoliyatining huquqiy holati 0 ga teng bu esa amaldagi qonunchilikda bo'shliqlar borligini ifodalaydi ..O'zbekiston Respublikasida hozircha xususiy detektivlik faoliyatini bevosita tartibga soluvchi maxsus qonun mavjud emas. "Xususiy xavfsizlik faoliyati to'g'risida"gi Qonun qabul qilingan bo'lsa-da, u asosan qo'riqlash xizmatlarini nazarda tutadi.Mavjud qonunchilikda detektivlik faoliyatini amalga oshirishga oid aniq talablar, litsenziyalash tartibi, vakolat va javobgarlik choralari belgilanmagan. Shu sababli ham qonunlashtirish zarurati biz uchun muhimdir, bu orqali biz quyidagi ishlarga erishamiz :

Davlat huquqni muhofaza qiluvchi organlarining yuklamasini kamaytirish;

Fuqarolarga qo'shimcha himoya xizmatlarini taqdim etish;

Jinoyatchilikka qarshi kurashda qo'shimcha kuch yaratish.

Shuni ham inobatga olish kerakki, bu holat fuqarolarga, jamiyaga yangilik sifatida turlicha qabul qilinishi mumkin ,chunki endi demokratiya ,yangilanish sari harakat qilayotgan davlat uchun ,xalq uchun yangilanishni qabul qilib uni amalda qo'llashga harakat pastroq bo'lib bu ijobiy va salbiy ta'sirlarga ega bo'lishi mumkin

Xususiy detektivlikning ijobiy va salbiy jihatlari

Ijobiy jihatlari;

Jinoyatlarni tez fosh etishda yordam;

Mijozlar manfaatlarini himoya qilishda moslashuvchanlik;

Xavfsizlik sohasida yangi ish o'rinlari yaratilishi;

Huquqbuzarliklarning oldini olishda profilaktik ta'sir.

Salbiy jihatlari esa quyidagilarni tashkil etadi;

Maxfiylikni suiiste'mol qilish ehtimoli;

Dalil to'plashda qonun buzilish xavfi;

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan vakolatlar to'qnashuvi;

Axborot xavfsizligi bilan bog'liq xatarlar. Salbiy va ijobiy natijalarni inobatga olgan holda O'zbekistonda xususiy detektivlikni rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni eltirib o'taman :

Maxsus qonun qabul qilish — detektivlik faoliyatining turlari, vakolatlari, cheklovlari va javobgarlik choralari belgilanishi lozim.

Litsenziyalash tizimini joriy etish — malaka imtihonlari, maxsus kurslar va psixologik testlardan o'tkazish.

Etika kodeksini ishlab chiqish — maxfiylik, shaxsiy hayot daxlsizligi va halollik tamoyillarini mustahkamlash.

Davlat nazorati — ichki ishlar organlari yoki Adliya vazirligi huzurida nazorat bo'limi tashkil etish.

Xalqaro hamkorlik — xorijiy tajribani o'rganish va qo'shma treninglar o'tkazish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, xususiy detektivlik faoliyati — zamonaviy jamiyatda xavfsizlikni ta'minlashning muhim elementlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasida bu sohani qonuniylashtirish fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va xavfsizlik tizimini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, mazkur sohani tartibga soluvchi maxsus qonun qabul qilish, litsenziyalash va malaka talablarini joriy etish, shuningdek, davlat nazoratini ta'minlash zarur. Bu nafaqat ichki xavfsizlik tizimini kuchaytiradi, balki fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
- 2.O'zbekiston Respublikasining “Xususiy xavfsizlik faoliyati to'g'risida”gi Qonuni 3.// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., №20.
- 4.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2023.
- 5.Federal Law of the Russian Federation No. 2487-1 “On Private Detective and
- 6.Security Activity in the Russian Federation” (1992, amended 2020).
- 7.Security Industry Act 2001 (United Kingdom).
- 8.Swanson, C.R., Chamelin, N.C., Territo, L. Criminal Investigation. – New York: McGraw-Hill, 2019.
- 9.Harfield, C., Harfield, K. Private Policing. – Oxford: Oxford University Press, 2008.
- Criminal Justice Ethics and Private Investigation // Journal of Security Studies. – 2021. – Vol. 14(3). – P. 55–72.
- 10.O'zbekiston Milliy axborot agentligi. “Xususiy xavfsizlik xizmatlari rivojlanmoqda” maqolasi. 2022-yil, 14-noyabr.
- Interpol official website – [www.interpol.in](http://www.interpol.in)